

**SUG‘ORILADIGAN MAYDONLARDA MOSH (*PHASELUS AUREUS*  
*PIPER.*) NAVLARINING TAVSIFI**

**Idrisov Xusanjon Abdujabborovich.**, q.x.f.f.d (PhD)

FarDU Mevachilik va sabzavotchilik kafedrasini mudiri

**Soliyev Abdulvosid Mirolim o‘g‘li**

FarDU UMS qo‘shma fakulteti Anorchilik ta‘lim yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

**Email;** [idrisovhusanzon@gmail.com](mailto:idrisovhusanzon@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada moshning mahalliy navlari to‘g‘risida batafsil va to‘liq ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, biologik xususiyatlari bo‘yicha ertapishar, o‘rtapishar va kechpishar guruhlari bo‘yicha to‘htalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar;** Mosh, nav, Navro‘z, Durdon, Qahrabo, Radost, Zilola, Marjon, Turon, oqsil, dukkak, hosil, tuproq

Respublikamiz sharoitida kuzgi bug‘doydan 60-70 s/ga, takroriy ekin sifatida etishtiriladigan mosh ekinidan esa 15-20 s/ga don hosili etishtirilib, bir mavsum davomida etishtiriladigan don hosilini 75-90 s/ga etkazish imkoniyatlari mavjud. Er yuzida dukkakli-don ekinlari 135 mln.gektar maydonga ekiladi. Dukkakli-don ekinlari orasida mosh ekiladigan maydon hajmi jihatidan jahonda soyadan (dunyo bo‘yicha soya maydoni 74 mln gektarga yaqin) keyin ikkinchi o‘rin (25 mln gektarga yaqin) ni egallab, uchinchi o‘rinda no‘xot (dunyoda jami 10 mln gektarga yaqin) turadi.

Markaziy Osiyo va Kavkazorti respublikalarida moshdan ozik-ovkat sanoatida keng foydalaniladi. Moshdan tayyorlangan un makaronga ko‘shilsa uning to‘yimliligi yanada ortadi. Mosh dukkakli-don ekinlar guruxiga mansub bo‘lib, donida ko‘p mikdorda 24-28 % oksil to‘planadi. Undan ozik-ovkat sanoati bilan birga chorva

xayvonlari uchun to'yimli em-xashak xam etishtirish mumkin. Shuningdek moshning ildizlarida tuganak bakteriya rivojlanib, erkin azotni o'zlashtirib, tuprok unumdorligini oshiradi.

Insonning ovqatlanishi uning yoshi, jinsi va mexnat faoliyatiga bog'liq bo'lgan xolda turlicha bo'lishi lozim. Kundalik ratsionda inson oqsil, uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalar va boshqalarni iste'mol etishi lozim. Inson qanchalik turli-tuman oziqlansa, uning hayot faoliyati shunchalik faol, organizm esa shunchalik sog'lom bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, inson organizmi maromda faoliyat ko'rsatishi uchun oqsilga talab bir kunda uning vaznining har bir kilogrammi uchun 0.7 gr dan kam bo'lmasligi lozim.

Qishloq xo'jaligi o'simliklarida rivojlanishini cheklovchi omillardan biri-ularning azotli birikmalar bilan etarli darajada ta'minlab turilmasligidir. Bunday ya'ni azot tanqisligi sharoitida o'simliklar atmosfera havosining qariyb 80% ini tashkil etadigan molekulyar azot qurshovida bo'ladi. Dukkakli don o'simliklari o'zida azot to'plash xususiyatiga ega. Dukkakli don ekinlari erda ko'p miqdorda organik moddalarni to'playdi, bu bilan dehqonchilikdagi azot balansini yaxshilab ularning ayrimlari qiyin eriydigan fosfatlarni o'zlashtiradigan shaklga aylantiradi. Dukkakli o'simliklar ildizlari tuganaklaridagi tuganak bakteriyalar yordamida atmosfera azotini biriktirib olib, azot bilan tuproqni boyitadi. Umuman, dukkakli don ekinlari dehqonchilikda uchta asosiy vazifani: o'simlik oqsili masalasini, don etishtirishni ko'paytirish va tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi.

### **Mosh navlarining tavsifi**

“Navro'z”navi—O'zbekiston Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida tanlov yo'li bilan yaratilgan bo'lib, 2005 yilda Davlat Reestriga kiritilgan. Don va ko'k poya olish uchun asosiy ekin sifatida hamda takroriy ekin sifatida ang'izga bug'doydan keyin ekishga tavsiya etiladi. Pishish davri 90-95 kun, hosildorligi gektaridan 14-16 s, o'simlik bo'yi 95-100 sm, urug'da oqsil moddasi 22-24 %, 1000 dona urug' vazni 60-65 g, poya ko'rinishi shtampali, guli sariq, ertapishar nav, ekish muddati asosiy ekinda 20-25 aprel, takroriy ekinda 20 iyungacha, urug' ekish me'yori 10-12 kg.

**“Qaxrabo” navi-** O‘zbekiston Sholichilik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan bo‘lib, 2005 yildan Davlat Reestriga kiritilgan juda ertapishar nav bo‘lib, bahorda ekilganda 90-95 kunda, takroriy ekilganda 80-82 kunda pishib etiladi. Hosildorligi bahorda ekilsa gektariga 18-20 sentenrdan, takroriy ekilganda gektariga 14-15 sentenrni tashkil etadi. 1000 ta donining vazni 55-60 gramm, poyasining shakli tik o‘sovchanligi bilan xarakterlanadi, hosili mexanizmlar yordamida yig‘ib olishga mos. Ekish muddati asosiy ekinda 25 aprel – 5may, takroriy ekinda 20 iyungacha urug‘ ekish me‘yori 14-16 kg.

**“Radost”navi** O‘zbekiston SHolichilik ilmiy tadqiqot institutiningseleksion navi. Butunittifoq O‘simlikshunoslik institutining N/4730x224501 namunalarini chatishtirish yo‘li bilan yaratilgan. Mualliflari; Saltas M.M, BuriginaO.V., SHadieva M.,YusupovB., Qo‘chqorov X.1984 yildan Respublika bo‘yicha sug‘oriladigan erlarda Davlat Reestriga kiritilgan.O‘simlik yarim buta shaklda. O‘sov davri 101 kun. O‘simlik bo‘yi 60-70 sm. Hosildorligi 17,2 s/ga, don tarkibidagi oqsil 24-27%.

Guli yirik, sariq rangda. Shingilda 6-8 ta gul bo‘ladi. Dukkagi silinrsimon. Birinchi dukaklari 15-17sm balandlikda joylashgan. Siyrak,tukli. 10-14donli. Doni o‘rtacha kattalikda, uzunchoq, silindrsimon, xira-yashil,silliq.Yaltiroq, pallasi va kertigi oq. 1000 don og‘irligi 39-40gr.Ta‘mi sifati yaxshi. Qishloq xo‘jalik kasalliklari va zararkunandalariga chidamliligi bilan xarakterlanadi. Ekish muddati asosiy ekinda 20-25 aprel, takroriy ekinda 20 iyungacha, urug‘ ekish me‘yori 12-15 kg.

**“Durdona” navi.** Moshning “Durdona” navi O‘zbekiston O‘simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan va 2008 yilda Davlat Reestriga kiritilgan. Tezpishar nav bo‘lib, birinchi dukkak maysalari unib chiqqandan so‘ng 60-63 kunda pishadi. Butunlay pishish vaqti 90-95 kun. Dukkaklari poyasini ustki qismida shakllanadi, 20-25 dona bo‘ladi va terim uchun qulaydir.

Don hosildorligi 25,0-28,5 s/ga tashkil etadi. 1000 ta urug‘ vazni 85-87 g. Universal nav. Sabzavot va g‘alla ekinlari bilan almashlab ekish tizimida maqsadli foydalanish mumkin. Tuproq unumdorligini oshiradi.O‘simliklari yuqori ko‘chat

qalinligiga ega, oziqlanish maydoni 10-15x15 sm. Bahor hamda yoz mavsumida ekishga va to‘liq hosil olishga yaroqli. Turli xil taomlar tayyorlashda foydalanish mumkin. O‘simlikning ko‘k massasi chorva uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi. Ekish muddati asosiy ekinda 25 aprel-10 may, takroriy ekinda 20 iyun-10 iyulgacha. Urug‘ ekish me‘yori 10-12 kg/ga.

**“Zilola” navi.** Moshning “Zilola” navi O‘zbekiston O‘simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan va 2008 yilda Davlat Reestriga kiritilgan.

O‘rtapishar nav bo‘lib, birinchi maysalari unib chiqqandan so‘ng 70-75 kun o‘tganda birinchi dukkagi pishadi. Butunlay to‘liq pishish vaqti esa 90-95 kun. Dukkaklari ustki qismida shakllanadi, soni 20-25 dona bo‘ladi va terim uchun qulaydir. Don xosildorligi 25,0-28,0 s/ga tashkil etadi.

1000 dona urug‘ vazni 87-90 g. Universal nav. Sabzavot va g‘alla ekinlari bilan almashlab ekishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Tuproq unumdorligini oshiradi. O‘simliklar yuqori ko‘chat qalinligiga 10-15x15 sm chidamli. Bahorda hamda yoz mavsumida ekishga va to‘liq hosil olishga yaroqli.

Turli xil taomlar tayyorlashda foydalanish mumkin. O‘simlikning ko‘k massasi chorva uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi. Ekish muddati asosiy ekinda 25 aprel-10 may, takroriy ekinda 20 iyungacha. Urug‘ ekish me‘yori 10-12 kg.

**“Marjon” navi.** Moshning “Marjon” navi O‘simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan va 2008 yilda Davlat Reestriga kiritilgan.

Tezpishar nav bo‘lib, birinchi maysalari unib chiqqandan so‘ng 60-63 kun o‘tganda birinchi dukkagi pishadi. Butunlay to‘liq pishish vaqti esa 90-95 kun. Dukkaklari ustki qismida shakllanadi, soni 20-25 dona bo‘ladi va terim uchun qulaydir. Don hosildorligi 25,0-28,5 s/ga tashkil etadi. 1000 dona urug‘ vazni 87 g. Universal nav. Sabzavot va g‘alla ekinlari bilan almashlab ekish tizimida muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Tuproq unumdorligini oshiradi. O‘simliklar yuqori ko‘chat qalinligiga 10-15x15 sm chidamli. Bahorda hamda yoz mavsumida ekishga va to‘liq hosil olishga yaroqli.

Turli xil taomlar tayyorlashda foydalanish mumkin. O‘simlikning ko‘k massasi chorva uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi. Ekish muddati asosiy ekinda 25 aprel-10 may, takroriy ekinda 20 iyungacha. Urug‘ ekish me‘yori 10-12 kg.

**“Turon”navi.** Moshning “Turon” navi O‘zbekiston O‘simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan va 2012 yilda Davlat Reestriga kiritilgan.

O‘rtapishar nav bo‘lib, birinchi maysalari unib chiqqandan so‘ng 65 kun o‘tganda birinchi dukkagi pishadi. Butunlay to‘liq pishish vaqti esa 100 kun. Dukkaklari ustki qismida shakllanadi, soni 20-25 dona bo‘ladi va terim uchun qulaydir. Don xosildorligi 29,0-31,0 s/ga tashkil etadi.

1000 dona urug‘ vazni 82 g. Universal nav. Sabzavot va g‘alla ekinlari bilan almashlab ekish tizimida muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Tuproq unumdorligini oshiradi. O‘simliklar yuqori ko‘chat qalinligiga 10-15x15 sm chidamli. Bahorda hamda yoz mavsumida ekishga va to‘liq hosil olishga yaroqli. Ekish muddati: bahorda 10aprel, yozda 15 iyun. Ekish me‘yori 12-16 kg/ga. Turli xil taomlar tayyorlashda foydalanish mumkin. O‘simlikning ko‘k massasi chorva uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Atabaeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh etishtirishning intensiv texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019
2. Atabaeva X.N, Xudoyqulov J.B O‘simlikshunoslik.T “Fan va texnologiya”. 2018
3. Atabaeva X.N.. Idrisov X.A Vliyanie srokov seva na formirovanie urojaynosti sortov masha. Aktualnie problemi sovremennoy nauki. Informatsionno-analiticheskiy jurnal Rossiya.Moskva 2019 g, № 4 (107) 118-121 str.
4. Atabaeva X.N.. Idrisov Opit vozdelivaniya masha v Uzbekistane. evelopment Evraziyskiy sentr innovatsionnogo razvitiya actual questions and Innovations in science ii Mejdunarodnaya nauchnaya Konferensiya Balikesir 9 oktyabrya 2019 g, Tursiya 231-234 str.

5. Atabaeva X.N., Xudoyqulov J.B., Anorboev A.R., Idrisov X.A. Mosh etishtirish. Qo‘llanma Toshkent.2021 yil.
6. Atabaeva X.N., Idrisov Mosh etishtirish texnologiyasini takomillashtirish. Monografiya. Far‘gona. 2021 yil.
7. Idrisov X.A, Nurmatov U.O Sug‘oriladigan maydonlarda mosh hosildorligiga ekish muddati va me‘yorining ta‘sirini o‘rganish. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723  
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-31-37.
8. Idrisov X.A M.A.Yusupova, M.A.G‘aziev, J.J. Qodirov, R.F.Akbarov, Z.T.Sodiqova. Results of Analytical Study of Growth, Development, Grain Yield and Quality of Mung Bean varieties as main and Reproductive crops. National Volatiles & Essent. Oils (NVEO), SCOPUS. 8(4):12574-12585, 2021 y.
9. Idrisov X.A , Darmonov D.Y, Gaziev M. A, Kodirov J. J, Muqimov Z. A, N. Z Sotvoldiev, Nurmatov U. O. Mamatkulov O.O. Rasulov A..Asqarov H. Results of analytical study of growth, development and grain yield of mung bean (Phaseolus aureus Piper) varieties. INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL EDUCATION, SCOPUS. Vol.37, No.3, 2022.8880-8886 betlar.
10. Idrisov X.A Muhammadjonova Sh. Moshning kolleksiya (Phaseolus aureus piper) ko‘chatzoridagi nav namunalari qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rganish natijalari. “International conference on learning and teaching-1” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan 15-February. 2022 y, 111-115 betlar.
11. Idrisov X.A, Soliev A. Moshning (Phaseolus aureus Piper) nav tanlov ko‘chatzorida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari. “International conference on learning and teaching-1” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-February.2022 y, 116-122 .betlar.

12. Idrisov X.A Abduraximova M. Moshning (*Phaseolus aureus Piper*) “Navro‘z” navi boshlang‘ich urug‘chiligini o‘tloqo-botqoq tuproqlar sharoitida tashkil etish. “International conference on learning and teaching-1” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-February. 2022 y, 123-127 betlar.
13. Idrisov X.A, Soliev A. Qishloq xo‘jalik ekinlari xosildorligini oshirishda asalarilar yordamida changlatishning ahamiyati. “International conference on learning and teaching-2” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 28-February.2022 y, 294-299 betlar.
14. Idrisov X.A, Soliev A. Moshning (*Phaseolus aureus piper*) takroriy ekin sifatida o‘rni va ahamiyati. “International conference on learning and teaching-4” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 30-Mart. 2022 y, 134-138 betlar.
15. Idrisov X.A, Soliev A. Mosh (*Phaseolus aureus Piper*) etishtirish agrotexnikasi to‘grisida fermerlarga zarur tavsiyalar. “International conference on learning and teaching-4” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 30-Mart.2022 y, 139-143 betlar.
16. Idrisov X.A, Soliev A. Soya ekininig inson salomatligida tutgan o‘rni va ahamiyati. “International conference on learning and teaching-5” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-aprel.2022 y, 27-32 betlar.
17. Idrisov X.A, Soliev A. Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoiti va soya (*glycine hispida l*) ekinining mahalliy navlari. “International conference on learning and teaching-4” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-aprel.2022 y, 20-26 betlar.
18. Sattarov M.A., Axmedova Z.R., Idrisov X.A J.U.Hamdammov. Different new varieties of soybean (*Glycine hispida l*) and mungbean *Phaseolus aureus piper*) plants’ tuber production abilities and primary indicators of symbiotic activity EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) SJIF Impact Factor:7.032 ISI I.F.Value:1.188 ISSN(Online): 2455-3662 DOI:10.36713/epra 2013, Volume-6, Issue-9, September 2020, 377-391 betlar.
19. Saimnazarov Y.B. va boshqalar. O‘zbekistonda dukkakli-don ekinlari etishtirish bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent.2009 y.9 bet.